



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BYUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ramazonov Akmal Samadovich¹

¹ Toshkent moliya instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812939>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021
Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021
Chop etildi: 20-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

byudjet tashkiloti, tovar-moddiy zahiralari, buxgalteriya hisobi, "UzASBO" dasturiy majmuasi, kontragent, nazorat, ishonchnoma, elektron hisobvaraqa-faktura, elektron raqamli imzo, xo'jalik yurituvchi subyekt.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralari bilan bog'liq hisob-kitoblar hisobini yuritishning asoslari tadqiq etilgan. Byudjet tashkilotlari "UzASBO" dasturiy majmuasida tovar-moddiy zahiralari bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi holati va imkoniyatlari tahlil qilingan. Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi byudjet tashkilotlari uchun "UzASBO" dasturiy majmuasida xaridor (kontragent)lar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda elektron shakldagi hisobvaraqa-fakturalardan foydalanishni tashkil etish, xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasini ta'minlashning zarurligi, uning afzalliklari asoslangan va bu bilan bog'liq holatda tizimli tarzda amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish

Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan hamda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotlar, bu — **byudjet tashkilotlaridir** (2019). **Byudjet tashkilotlari** o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun belgilangan normativlarga asosan ma'lum miqdorda tovar-moddiy zahiralari(TMZ)ga ega

bo'lishlari kerak. Tovar-moddiy zahiralari (TMZ) byudjet tashkilotlarining faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi. Sh.M. Mirziyoyev (2017) "... Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash ... hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat" ekanligini qayd etib o'tgan. Shundan kelib chiqib, byudjet tashkilotlarining cheklangan mablag'laridan oqilona



foydalanilishida TMZ hisobini to'g'ri tashkil etilishi muhim hisoblanadi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'shimcha faoliyat turi sifatida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqaruvchi byudjet tashkilotlarida ishlab chiqarish zahiralariidan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, ularning oqilona sarflanishiga rioya qilish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning salmog'ini minimallashtirish, ularning hisobini tashkil etishni raqamlashtirish borasida byudjet tashkilotlari foydalanadigan "UzASBO" dasturiy majmuasi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va uni yanada takomillashtirish, boshqa dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan integratsiyalashuvini yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berish lozim.

Adabiyotlar tahlili

Ishlab chiqarish zahiralari - bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadigan zahiralarga aytiladi. Ishlab chiqarish zahiralari, asosiy vositalardan farqli ravishda, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining "Tovar-moddiy zahiralari" (2019) nomli 7-sonli standartiga asosan TMZning tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari, xizmat ko'rsatish va qurilish materiallari, harbiy qurol-aslahalar, asosiy vositalar uchun ehtiyot qismlari, strategik zahiralari (masalan, energiya resurs zahiralari), muomalaga chiqarilmagan pul belgilari, sotish uchun mo'ljallangan pochta inventarlari va boshqalar kiradi (1- rasm).




1-rasm. Byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralarning turlari¹

Tadqiqotga doir 12-son DSBHXS (IPSAS) “Zahiralar” (2006) , 4-son BHMS “Tovar-moddiy zahiralar” (2020), 7-son BHS “Tovar-moddiy zahiralar” (2019) hamda mavzuga oid boshqa ko’pgina adabiyotlar o’rganildi.

4-sonli BHMS (2020) da “**Tovar-moddiy zahiralar** — keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab

shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir” deb ta’rif berilgan.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan shug’ullanuvchi byudjet tashkilotlari uchun TMZ hisobining vazifalariga quyidagilar (2019) kiradi:



chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan,

¹ 7-sonli BHS asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



- **TMZ harakati bilan bog'liq o'zgarishlarni o'z vaqtida tegishli hujjatlarda rasmiylashtirish**
- **Moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish**
- **TMZning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va sarflanishi me'yoriga rioya etilishni nazorat qilish**
- **Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyatsiya obyektlariga to'g'ri taqsimlash**
- **ichki resurslarni ishga solish maqsadida oqtiqcha va foydalanilmayotgan TMZlarni aniqlash va sotish;**
- **TMZning butligini saqlash, ombor xo'jaligini yuritish va inventarizatsiyani o'tkazish;**
- **ishlab chiqarish zahiralarni saqlanishi ustidan nazorat o'rnatish;**
- **ombordagi mavjud ishlab chiqarish zahiralarning belgilangan me'yoridan oshmayotganligini nazorat qilish;**
- **ishlab chiqarish zahiralarning kelib tushishi, saqlanishi va sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik jarayonlarini hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirish;**
- **ishlab chiqarishga sarflanayotgan zahiralarning belgilangan me'yorlariga amal qilishini va kalkulyatsiya obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlashni nazorat qilish**

2-rasm. Byudjet tashkilotlarida TMZ hisobining vazifalari²

² Muallif tomonidan Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. 196-199 betlar ma'lumotlari asosida tuzilgan



12-son DSBHXS (IPSAS) (2006) ga asosan tovar-moddiy zahiralalar:

-odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;

-bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;

-ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar boshqa aktivlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurashish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor berilishi lozim. Bular bevosita TMZlar hisobining vazifalarini belgilaydi.

Xaydarov (2015) o'z ilmiy izlanishlarida byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralalar harakatlarini to'g'ri aks ettirish, ularning kirimi va belgilangan me'yorlar ososida chiqimini to'g'ri tashkil etish bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Tashnazarov (2017) tomonidan tovar-moddiy zahiralalar tannarxini shakllantirish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari hamda buxgalteriya balansida zahiralalar tarkibini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Ostonokulov, Iskanov (2018) tomonidan tovar-moddiy zahiralarning saqlanishi, inventarizatsiyani tashkil etishning MDH mamlakatlari tajribasi tahlil qilingan.

To'rayev, Norquchqorov (2019) tomonidan byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralalar hisobini tashkil qilishdagi mavjud muammolar va ularni byudjet

hisobi standarti bo'yicha kutilayotgan yechimlari tadqiq qilingan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlarining sohaga doir ilmiy izlanishlarida tovar-moddiy zahiralarning tannarxi hisobi va hisobotining hisob standartlariga uyg'un jihatlari, hisobini olib borish, kirimi va chiqimini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari o'rganilgan bo'lib, lekin hozirgi raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib, tovar-moddiy zahiralari hisobini olib borishda zamonaviy elektron dasturlarning imkoniyatlarini oshirish va ularni takomillashtirish, dasturiy majmuani integratsiyalashtirish masalasiga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqot ishi dolzab masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu maqolani yoritishda byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralari hisobini tashkil etish va yuritishning o'ziga xos jihatlari, normativ huquqiy hujjatlar talablari va byudjet hisobi standartlari qoidalari hisobga olingan holda tizimli tahlil, analiz, sintez, taqqoslash, qiyosiy tahlil, abstrakt mantiqiy fikrlash, istiqbolli prognozlash, monografik kuzatuv va boshqa shu kabi bir qancha tadqiqot usullaridan foydalanish asosida ilmiy xulosalarga kelindi.

Tahlil va natijalar

Bizningcha, ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan zahiralalar hisobini elektron shaklda yuritilishini osonlashtirish maqsadida, quyidagicha guruhlariga ajratgan holda hisobini tashkil etish maqsadga muvofiq:

1-jadval



Byudjet tashkilotlarida ishlab chiqarish zahiralarining guruhlanishi ³

T/r	Materiallar guruhi	Materiallar guruhining tavsifi
1	Xom ashyo	metall ishlab chiqarishda ruda, tekstil sanoatida momiq paxta tolasi va x. k.
2	Asosiy materiallar	mashinasozlikda qora metallar, yog'oshsozlik sanoatida yog'osh
3	Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar	stanoksozlikda motorlar, avtomobilsozlikda shinalar
4	Yordamchi materiallar	moylash materiallari bo'yoq, lak, artish materiallari va x. k.
5	Chiqindilar	qirindilar, qipiqalar, truba kesiklari va x. k.
6	Idish va idishbop materiallar	yog'osh, karton va metall idishlari
7	Ehtiyot qismlar	ta'mirlash uchun mashina va asbob-uskunalarining ayrim detallari
8	Inventar va xo'jalik jihozlari	otvertkalar, iskana, xo'jalik inventarlari, maxsus qiyimlar va x. k.
9	Boshqa materiallar	Yuqoridagi guruhlarga kirmaydigan boshqa materiallar (tuzatilmaydigan braklar, metallom)

³ Muallif ishlanmasi



Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy qimmatliklar (TMZ) tashkilot faoliyatida muhim ahamiyatga ega

ekanligini quyida Toshkent moliya institutining yillik aylanma qaydnomasi ma'lumotlari misolida ko'rib chiqamiz (2-3-jadvallar).

2-jadval

Toshkent moliya institutida tovar moddiy zahiralarning yillik aylanmasi⁴
(2020 yil, ming so'm)

Anali-tik schyot raqami	TMZ nomi	Yil boshidagi qoldiq		aylanma		Yil oxiridagi qoldiq	
		Дебет	Кредит	Дебет	Кредит	Дебет	Кредит
060/3	Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qurilish materiallari	14 830,5	-	16 158,7	21 647,8	9 341,4	-
060/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan qurilish materiallari	14 931,9	-	139 622,4	136 259,9	18 294,4	-
062/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari	-	-	97 884,2	57 908,6	39 975,6	-
063/2	Innovatsiya mablag'lari hisobidan inventar va xo'jalik jihozlari	2 867,8	-	102 512,3	65 217,2	40 162,9	-
063/3	Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan inventar va xo'jalik jihozlari	70 080,9	-	149 131,6	200 023,3	19 189,2	-
063/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan inventar va	269 053,2	-	1 055 816,8	984 589,5	340 280,5	-

⁴ Toshkent moliya instituti yillik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



	xo'jalik jihozlari						
064/5	To'lov kantrakt mablag'lari hisobidan yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari	-	-	83 380,1	83 380,1	-	-
Jami TMZ		371 764,3	-	1 644 506,1	1 549 026,4	467 244,0	-

Jadval ma'lumotlariga ko'ra yil boshida TMZ qoldig'i 371 764,30 ming so'm bo'lib, yil davomida 1 644 506,40 ming so'mlik TMZ kirim qilinganligi va 1 549 026,10 ming so'mlik TMZ xo'jalik

ehtiyojlari uchun sarflanganligini, yil oxiriga kelib tashkilot balansida TMZ qoldig'i 467 244, 00 ming somni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.



3-jadval

Toshkent moliya institutida jami tovar moddiy zahiralari tarkibiy ulushi va uning yil davomidagi o'zgarishi dinamikasi⁵

(2020 yil, foiz)





Счет	TMZ nomi	Yil boshiga ulushi	Aylanma		Yil oxiriga ulushi
			Дебет	Кредит	
060/3	Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qurilish materiallari	4,0	1,0	1,4	2,0
060/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan qurilish materiallari	4,0	8,5	8,8	3,9
062/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari	0,0	6,0	3,7	8,6
063/2	Innovatsiya mablag'lari hisobidan inventar va xo'jalik jihozlari	0,8	6,2	4,2	8,6
063/3	Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan inventar va xo'jalik jihozlari	18,8	9,1	12,9	4,1
063/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan inventar va xo'jalik jihozlari	72,4	64,1	63,6	72,8
064/5	To'lov kontrakt mablag'lari hisobidan yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari	0,0	5,1	5,4	0,0
Jami TMZ		100,0	100,0	100,0	100,0

⁵ Toshkent moliya instituti yillik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-3-jadvallar ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent moliya institutida 2020 yil davomida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan olingan qurilish materiallari ulushi jamiga nisbatan yil boshidagiga ko'ra yil oxirida 2%ga yoki yil oxirida yil boshidagiga nisbatan 5 489,1 ming so'mga kamaygan, to'lov kontrakt mablag'lari hisobidan olingan qurilish materiallari ulushi jamiga nisbatan yil boshidagiga ko'ra yil oxirida 0,1%ga kamaygan yoki yil oxirida yil boshidagiga nisbatan 3 362,5 ming so'mga oshganligini, yil davomida to'lov kontrakt mablag'lari hisobidan 39 975,60 ming so'mlik dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari sotib olinganligi yoki uning ulushi jamiga nisbatan yil oxirida 8,6%ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. 063/2

analitik schyoti qoldig'i ulushi jamiga nisbatan yil boshidagiga ko'ra yil oxirida 7,8 %ga yoki yil oxirida yil boshidagiga nisbatan 37 295,1 ming so'mga oshgan, 063/3 analitik schyoti qoldig'i ulushi jamiga nisbatan yil boshidagiga ko'ra yil oxirida 14,7 %ga yoki yil oxirida yil boshidagiga nisbatan 50 891,7 ming so'mga kamaygan, 063/5 analitik schyoti qoldig'i ulushi jamiga nisbatan yil boshidagiga ko'ra yil oxirida 0,4 %ga yoki yil oxirida yil boshidagiga nisbatan 71 227,3 ming so'mga oshgan, 063/5 analitik schyoti qoldig'i esa o'zgarmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu ma'lumotlarni diagramma shaklida ko'rishimiz mumkin (1-2-diagrammalar):



1-diagramma:Toshkent moliya institutida jami tovar moddiy zahiralari yil boshidagi tarkibiy ulushi

2-diagramma:Toshkent moliya institutida jami tovar moddiy zahiralari yil oxiridagi tarkibiy ulushi

2020 yilning 1 iyulidan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti «Tovar-moddiy zahiralari» (4-son BXMS) (2020) ni qabul qilishdan asosiy maqsad – TMZni hisobga olishga doir to'plangan mahalliy va xalqaro amaliyotni, qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlarni inobatga olgan holda ayrim normalarni qayta ko'rib chiqish, shuningdek muayyan

tahririy o'zgartirishlar kiritishdan iborat edi. Fikrimizcha, bu bilan hisob tizimini xalqaro normalarga yaqinlashtirish borasida muhim qadam tashlandi. Lekin, sohada hali o'z yechimini kutayotgan ko'pgina muammoli holatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrdagi 807-sonli "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish



chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2019 yil 25 iyundagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqa-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari asosida 2020 yil 1 yanvardan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisobvaraqa-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va hisobini yuritish tizimi majburiy tartibda joriy etildi. Lekin, elektron shakldagi hisobvaraqa-fakturalardan foydalanishga o'tish mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi byudjet tashkilotlari uchun ayrim noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda.

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorlarida (2018, 2019) byudjet tashkilotlarining ushbu tizimdan foydalanishiga oid me'yor kiritilmagan hamda tizim operatorlarida (e-faktura.uz, faktura.uz, soliqservis.uz, didox.uz va boshqalar) byudjet tashkilotlarining manfaatlariga mos ta'riflar deyarli yo'q. Bizning fikrimizcha, byudjet tashkilotlarining davlat va jamiyatdagi tutgan o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda, ular uchun mos alohida (tekin) ta'riflar yaratilishi maqsadga muvofiq. Yaqingacha (2021 y. iyul) bunday tekin xizmat turi faqat, didox.uz tizimida taklif etilgan bo'lib, ko'pgina byudjet tashkilotlari ushbu tizimdan foydalanardi. Bu esa byudjet tashkilotlarini rouming operatorlarini erkin tanlashda to'siq bo'lib qolgandi.

Ushbu noqulayliklarni bartaraf etish maqsadida Moliya vazirligi axborot texnologiyalari markazi tomonidan "UZASBO Faktura" -- elektron hisob fakturalar tizimi ishga tushirildi. Lekin

bular ko'p sonli byudjet tashkilotlarining ehtiyojlarini to'laqonli qondira olmaydi.

Xulosa va takliflar

Respublikamizdagi byudjet tashkilotlari hozirda amalda foydalanayotgan "Uzasbo" dasturiy majmuasida TMZ hisobini olib borishda bir qancha ketma-ketlikdagi murakkab buxgalteriya amallarini bajarishga to'g'ri kelmoqda. Sotib olingan TMZni balansga kirim qilishdagi "Spravochnik TMZ" bo'limida TMZning alohida ro'yxatini shakllantirish, kirim qilinadigan bo'limni tanlash, provodkani tanlash kabi amallar shular jumlasidan. TMZ sotib olishda MEB tashkilotga ishonchnoma berish funksiyasi ham dasturiy majmuaning "Hujjatlar" menyusida "Ishonchnoma" bo'limida mavjud bo'lib, ishonchnoma elektron shaklda rasmiylashtiriladi, lekin, uni mol yetkazib beruvchi tashkilotga elektron yetkazib berish va ulardan elektron hisobvaraqa-fakturalar orqali mahsulot (ish va xizmat)larni qabul qilish imkoniyati mavjud emas.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, "Uzasbo" dasturiy majmuasining internet tarmog'i orqali ishlashini inobatga olib, uning raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashuv imkoniyatlarini oshirish lozim deb hisoblaymiz. Buning uchun "Hujjatlar" menyusida "Elektron hisobvaraqa-faktura" oynasini kiritish, ushbu oynada rouming operatorining barcha funksiyalarini o'zida jamlagan tizim yaratilishi, byudjet tashkilotlari uchun yanada samarali bo'ladi degan yakuniy xulosaga kelindi. Dasturiy majmuaning raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashuv imkoniyatlarini



takomillashtirish uchun, quyidagi tizimli ishlarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, “UzASBO” dasturiy majmuasining menyusini takomillashtirgan holda, “...dasturiy majmuaning “Hujjatlar” menyusida “Elektron hisobvaraqa-faktura” oynasini kiritish...”⁶. Ushbu oyna orqali elektron shakldagi barcha hujjatlarning aylanishini yo’lga qo’yish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, “Elektron hisobvaraqa-faktura” oynasi orqali mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan shug’ullanuvchi byudjet tashkilotlari uchun o’zlarida yaratilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) uchun buyurtmachilari(kontragent)lar bilan tuziladigan shartnomalarni elektron raqamli imzo yordamida elektron tarzda yuborish, buyurtmachilardan ishonchnomalarni elektron tarzda qabul qilishni yo’lga qo’yish.

Uchinchidan, dasturiy majmuaning “Elektron hisobvaraqa-faktura” oynasi orqali mol etkazib beruvchi (MEB) tashkilotlardan kelgan elektron hisobvaraqa-fakturalar orqali mahsulot(ish va xizmat)larni qabul qilib, tegishli provodkalarini avtomatik to’g’ridan-to’g’ri tarzda shakllantirish orqali, mahsulot(ish va xizmat)larni xarajat moddalariga taqsimlagan holda tegishli bo’limda hamda balansda aks ettirilishini ta’minlashga xizmat qiladigan tizim yaratish zarur.

To’rtinchidan, “Elektron hisobvaraqa-faktura” oynasi orqali mol etkazib beruvchi (MEB) tashkilotlarga elektron shaklda ishonchnoma

rasmiylashtirish, uni tashkilotning ishonchli shaxsining elektron imzosi yordamida tasdiqlab, mol yetkazib beruvchi tashkilotga elektron yetkazish imkoniyatini yaratish kerak.

Natija,biz tomondan ilgari surilayotgan takliflar asosida “UzASBO” dasturiy majmuasining menyusida “Elektron hisob faktura” oynasi yaratilishi orqali barcha byudjet tashkilotlarida elektron hisob fakturalarni qabul qilish, elektron hisob fakturalarni buyurtmachilarga yuborish, TMZ hisobini yuritishda inson omilini kamaytirib, balansga avtomatik ravishda kiritilishiga erishamiz. Ya’ni, balansga kiritish jarayonida “Spravochnik TMZ” bo’limida alohida ro’yxat shakllantirish, kiritiladigan kerakli bo’limni va provodkani tanlash, dasturiy majmuada avval shakllantirilgan ishonchnomani belgilash kabi murakkab amallar ketma-ketligini bajarish uchun ketadigan vaqt hamda tushunmovchiliklarni oldini olib, bu jarayonda inson omilini kamaytirishga va to’liq avtomatlashtirilishiga erishamiz. Byudjet tashkilotlarida TMZ hisobini yuritish hamda ular tomonidan yaratilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar miqdori va byudjetdan tashqari tushumlari miqdori qanchaligini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

⁶ Ostonokulov A., Ramazonov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo’nalishlari “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. – 2021. - № 2. 1-8-betlar <https://interfinance.uz>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2016 yil 13 aprel. O'RQ-404-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyundagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqa-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrda 807-sonli "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
7. International public sector accounting standards (IPSAS) -12, Inventories. New York, December - 2006
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2020 yil 28 maydagi 28-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2020 yil 30 iyunda 3259-tartib raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BXMS) «Tovar-moddiy zahiralari».
9. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma. O'z. Res. AV da 22.12.2010 yilda 2169-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, (17.03.2018 y. AVda 2169-2-son bilan ro'yxatga olingan yangi tahriri)
10. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (7-sonli BHS) "Tovar-moddiy zahiralari" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 14 yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3120
11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: – "O'zbekiston" NMIU, 2017.
12. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. 329 b.
13. Mehmonov S.U. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish" i.f.d. diss. avtoref. 76 b. – T., 2018.
14. Xaydarov M. Byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralari hisobini yuritish tartibi. "Iqtisod va moliya" jurnali 8-son, may 2015 yil.
15. Tashnazarov S. Tovar-moddiy zahiralari tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil



16. Ostonokulov A., Iskanov X. Inventarizatsiyaning nazariy-uslubiy asoslari va uning o'ziga xos xususiyatlari. "Moliya" ilmiy jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil
17. To'rayev A., Norquchqorov A. Byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zahiralarning hisobining amaliy jihatlari. "Moliyachi ma'lumotnomasi" jurnali 05 (89)-son, may 2019 yil.
18. Ostonokulov A., Ramazonov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'nalishlari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. – 2021. - № 2. 1-8-betlar <https://interfinance.uz>

Internet saytlari:

19. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
20. www.e-faktura.uz Elektron hisobvaraƒ-fakturalar rouming operatori
21. www.faktura.uz Elektron hisobvaraƒ-fakturalar rouming operatori
22. www.soliqservis.uz Elektron hisobvaraƒ-fakturalar rouming operatori
23. www.didox.uz Elektron hisobvaraƒ-fakturalar rouming operatori
24. <https://invoice.uzasbo.uz>